




## NAMANGAN VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**Namangan viloyatida  
kichik tadbirkorlik  
2021- yil yanvar-dekabr**


# Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik




yanvar-dekabr oylarida kichik  
tadbirkorlik subyektlarining  
YaHMDagi ulushi, % da



2019- yil



2020- yil




2021- yil

2021- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining **YaHMDagi** ulushi **73,5** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **12,3** birlikni tashkil qildi.

2021- yilning yanvar-dekabrda **6469** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **4,3** foizga ko'p demakdir.

## 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda **2512** ta, sanoatda **1727** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **685** ta, qurilishda **382** ta, yashash va ovqatlanishda **341** ta, tashish va saqlashda **189** ta tashkil etilgan.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari



2021- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

28949




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

6469

2021- yilning yanvar-dekabrida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

## Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da



■ 2020- y. ■ 2021- y.

# Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



2021- yil yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, % da

Savdo

35,5%



Sanoat

24,5%



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

9,3%



Qurilish

8,2%



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

5,2%



Tashish va saqlash

3,8%



Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

2,1%




Axborot va aloqa

1,7%



Boshqa faoliyat turlari


9,7%



2019- y. 2020- y. 2021- y.

Yanvar-dekabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

Hududlar bo'yicha yanvar-dekabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda




■ 2020- y.

■ 2021- y.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



## Hududlar bo'yicha 2021- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda




■ 2020- y. yanvar-dekabr

■ 2021- y. yanvar-dekabr


## 2021- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Namangan shahri-27,0%, Chust tumani - 8,3%, To'raqo'rg'on tumani - 7,4%, Uychi tumani - 7,0%, Uchqo'rg'on tumani - 6,9%, Namangan tumani - 6,9%, Chortoq tumani - 6,7%, Pop tumani - 6,3% hissalarga to'g'ri keldi.




# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

## Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



■ 2020- y. ■ 2021- y.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda



■ 2020- y. yanvar-dekabr ■ 2021- y. yanvar-dekabr

Ma'lumot uchun: 2021- yilning yanvar-dekabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:

Savdoda  
2512 ta

Sanoatda  
1727 ta

Qishloq,  
o'rmon va  
baliqchilik  
xo'jaligida  
685 ta

Qurilishda  
382 ta

# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida



2021- yil yanvar-dekabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 12,3 birlikni tashkil etdi.



Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-dekabr holatiga ko'ra\*

2019- y.

10,0

2020- y.


11,8

2021- y.

12,3

2021- yilning yanvar - dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Mingbulloq tumanida 14,7 birlik, Namangan tumanida 14,4 birlik, Namangan shahrida 14,3 birlik, Chorotq tumanida 13,3 birlik, Chust tumanida 12,9 birlikni tashkil etgan.

2021- yilning yanvar-dekabrda hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)\*





# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida

Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 2021- yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra\*


**Eng yuqori ko'rsatkich**  
Mingbuloq tumani - 14,7 birlik.

**O'rtacha ko'rsatkich**  
Uchqo'rg'on tumani - 12,3 birlik.

**Past ko'rsatkich**  
Yangiqo'rg'on tumani - 10,3 birlik.

2021- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Mingbuloq tumanida 14,7 birlik, Namangan tumanida 14,4 birlik, Namangan shahrida 14,3 birlik, Chorotq tumanida 13,3 birlik, Chust tumanida 12,9 birlikni birlikni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-dekabrda har 1000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari sonini eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda \*




\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



# Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti




2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 253,5 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 51,2 % ini tashkil etdi.




yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi

## 2021- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da



2021- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Chortoq va Yangiqo'rg'on tumanlarida – 100,0 %, Kosonsoy tumanida – 62,7 %, Uychi tumanida – 62,2 %, Namangan shahriida – 59,7 % va Pop tumanida – 53,0 %ni, eng past ko'rsatkich Uchqo'rg'on tumanida – 7,0 %ni tashkil etdi.

## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi




yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi

2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **474,6** million AQSh dollarini yoki umumiy importning **79,8%** ini tashkil etdi.




2021- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2021- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Chortoq va Yangiqo'rg'on tumanlarida – 100,0 %, Uychi tumanida – 96,2 %, Norin tumanida – 95,9 %, Kosonsoy tumanida – 92,1 %, Namangan tumanida – 80,4 %ni, eng past ko'rsatkich esa, Mingbuloq tumanida - 22,7 %ni tashkil etdi.




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati



2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **7174,3** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Namangan shahri (3233,0 mlrd. so'm), Uychi (701,0 mlrd. so'm), Namangan (543,7 mlrd. so'm), Kosonsoy (385,1 mlrd. so'm), Mingbuloq (385,1 mlrd. so'm) va To'raqo'rg'on (364,1 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Uchqo'rg'on tumanida (93,0 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati



yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi


2021- yil yanvar-dekabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **49,2 %** ni tashkil etdi.

## 2021- yil yanvar-dekabr holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Chortoq va Yangiqo'rg'on tumanlari (100,0%), Uychi tumani (75,4%), Kosonsoy tumani (65,2%), Pop tumani (60,8%)ni tashkil etdi. To'raqo'rg'on (14,7%) hamda Uchqo'rg'on (20,6%) tumanlarida kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati




yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi

2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **14216,3** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **93,6** % ini tashkil etib, 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **16,1** % ga o'sishi kuzatildi.

## 2021- yilning yanvar- dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Namangan shahri (5810,8 mlrd. so'm), Pop (1264,9 mlrd. so'm), Chust (970,2 mlrd. so'm), Norin (889,3 mlrd. so'm), Kosonsoy (854,1 mlrd. so'm) va Yangiqo'rg'on (814,5 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.




■ hajm, mlrd. so'm

● o'sish sur'ati, %

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati



## yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi



2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **5247,9** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **93,5 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **113,1 %**ni tashkil qildi.




## 2021- yilning yanvar- dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Namangan shahri (1344,3 mlrd. so'm), Uychi (554,2 mlrd. so'm), Namangan (467,7 mlrd. so'm), Kosonsoy (428,0 mlrd. so'm) hamda Chortoq (413,2 mlrd. so'm) tumanlarida, eng kam esa, Norin (243,3 mlrd. so'm) va Mingbuloq (222,0 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati




yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi

2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **11786,8** mlrd. soʻmlik xizmatlar koʻrsatildi yoki koʻrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **67,8** % ini tashkil qildi va oʻsish surʻati 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **122,3** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp xizmatlar hajmi Namangan shahri (4744,2 mlrd. soʻm), Pop (781,8 mlrd. soʻm), Toʻraqoʻrgʻon (752,4 mlrd. soʻm), Chust (737,5 mlrd. soʻm), Namangan (654,7 mlrd. soʻm), Chortoq (653,8 mlrd. soʻm) va Uychi (647,9 mlrd. soʻm) tumanlari hissasiga toʻgʻri keldi.


2021- yilning yanvar- dekabrda hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va oʻsish surʻati






## 2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi ko'rsatkichlari


2021- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlikning ulushi, % da:




Yuk tashishda



Yuk aylanmasida



Yo'lovchi tashishda



Yo'lovchi aylanmasida

2021- yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 94,0 % ni tashkil etdi. 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 101,3 % ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 91,1 % ni tashkil etgan bo'lib, 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 104,0 % ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 97,3 % ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 106,6 % ni tashkil qildi.


2021- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 91,3 % ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 105,1 % ni tashkil qildi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2021- yil IV chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **897** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 341 (38,0%) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 471 (52,5%) tasi subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 85(9,5%) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

2021- yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Xizmatlar


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 6,3 % (56 ta), sanoatda – 23,6 % (212 ta), qurilishda – 8,0 % (72 ta) , savdoda – 35,9 % (322 ta), xizmatlar sohasida – 26,2 % (235 ta) ni tashkil etdi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2021- yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2021- yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Namangan shahri (262 ta), Pop (82 ta), Chust (72 ta), Uychi (64 ta), To'raqo'rg'on (63 ta) va Namangan (62 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari




## 2021- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2021- yilning IV choragida, o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra **2021- yilda** iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilish sohasida 44,5 % ni, xizmatlar sohasida 41,7 %ni, savdoda 37,9 %ni tashkil etdi.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 71,4 %ni, sanoatda 52,3 %ni, xizmatlar 69,0 %ni tashkil etdi.

## 2021- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2021- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilish sohasida 50,0 %ni, xizmatlar sohasida 46,8 %ni, savdoda 46,6 %ni tashkil etdi.

Shuningdek **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 53,6 %ni, savdoda 47,2 %ni, sanoatda 46,7 %ni tashkil etdi.

